

OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY
ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI

S.O.Niyozov

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy ish kafedrası mustaqil tadqiqotchsi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22868314>

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishning ijtimoiy va institutsional omillari tahlil qilinadi. AQSh va Buyuk Britaniyadagi akademik moslashtirish hamda talabalarni qo'llab-quvvatlash amaliyotlari qisqacha ko'rib chiqilib, ushbu tajribalardan O'zbekiston oliy ta'limida foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Rasmiy statistik ko'rsatkichlar asosida ta'limga kirish imkoniyati bilan undagi mazmunli ishtirok o'rtasidagi farq asoslanadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, oliy ta'lim, sotsial omil, ijtimoiy tenglik, institutsional muhit, raqamli qulaylik, akademik ishtirok, xorijiy tajriba.

Abstract: The article analyzes social and institutional factors in implementing inclusive education in higher education institutions. It examines academic accommodation and student support practices in the United States and the United Kingdom and their potential application in Uzbekistan. Based on official statistics, the article highlights the gap between access to education and meaningful participation in the educational process.

Keywords: inclusive education, higher education, social factor, social equality, institutional environment, digital accessibility, academic participation, international experience.

Аннотация: В статье анализируются социальные и институциональные факторы внедрения инклюзивного образования в высших учебных заведениях. Рассматриваются практики академической адаптации и поддержки студентов в США и Великобритании, а также возможности их применения в Узбекистане. На основе официальной статистики

раскрывается различие между доступом к образованию и полноценным участием в образовательном процессе.

Ключевые слова: инклюзивное образование, высшее образование, социальный фактор, социальное равенство, институциональная среда, цифровая доступность, академическое участие, зарубежный опыт.

Oliy ta'lim kasbiy tayyorgarlik bilan birga ijtimoiy harakatchanlik, shaxsiy mustaqillik va jamoat hayotida ishtirok imkoniyatini yaratadi. Inklyuziv ta'limni joriy etish alohida ehtiyojli talabani mavjud tartiblarga bir tomonlama moslashtirish emas, balki universitetning tashkiliy, kommunikativ va madaniy muhitini turli imkoniyatlarga ega talabalar uchun o'zgartirishdir. Uning sotsial omillarini tahlil qilish huquqiy tenglik bilan amaliy ta'lim tajribasi o'rtasidagi tafovutni aniqlashga xizmat qiladi.

Inklyuziya qabul jarayoni bilangina cheklanmaydi; u dars, baholash, kutubxona, turar joy va amaliyotdan foydalanishda to'siqlarni kamaytirishni ham talab qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 20-moddasi individual imkoniyatlar va alohida ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini inobatga olib, teng imkoniyat yaratishni nazarda tutadi. Shu bois barcha talabaga bir xil sharoit taklif etish har doim amaldagi tenglikni ta'minlamaydi.²⁴

Sotsial omillar deganda ta'lim olishga ta'sir ko'rsatuvchi munosabatlar, me'yorlar, resurslar taqsimoti va institutsional qarorlar tushuniladi. Masalan, ko'zi ojiz talabaning elektron kitobdan foydalana olmasligi faqat uning individual xususiyatiga emas, balki hujjatning rasm shaklida joylashtirilgani yoki platformaning ekran o'qish dasturiga mos emasligiga ham bog'liq. Muammoni shaxsiy kamchilik emas, o'zgartirilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy to'siq sifatida ko'rish universitet mas'uliyatini aniqlashtiradi.

Xalqaro huquqiy yondashuv ham mazkur farqni ochib beradi. BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi 24-moddasi ta'limning barcha bosqichlarida inklyuziv tizim va uzluksiz ta'lim prinsipini belgilaydi; uning 5-

²⁴ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 23.09.2020, O'RQ-637-son, 20-modda.

bandida nogironligi bo'lgan shaxslarning oliy ta'limdan boshqalar bilan teng asosda foydalanishi va zarur oqilona moslashtirish choralari ko'rilishi nazarda tutiladi. Oqilona moslashtirishni imtiyoz bilan chalkashtirmaslik zarur: uning maqsadi o'qitish natijalariga qo'yilgan ilmiy talabni bekor qilish emas, talabani o'z bilimini namoyon etishdan to'sib turgan ortiqcha to'siqlarni bartaraf etishdir.²⁵

Inklyuziyaning muhim omili professor-o'qituvchilar, talabalar va ma'muriyatning nogironlikka doir qarashlaridir. Haddan tashqari homiylik ham, barcha vazifani hech qanday moslashtirishsiz bajarishni talab qilish ham talabanning mustaqil qarorini cheklashi mumkin. Huquqqa asoslangan yondashuv talabanning ehtiyojini uning o'zi bilan muhokama qilishni va uni universitet faoliyatining teng huquqli subyekti deb tan olishni talab etadi.

Universitet madaniyati kundalik amaliyotda namoyon bo'ladi: ma'ruza materialining qulay formatda berilishi, shaxsiy ma'lumotning roziliksiz tarqatilmaligi, konferensiya va talabalar boshqaruvida ishtirok uchun sharoit yaratilishi shular jumlasidandir. Qo'llab-quvvatlash faqat ayrim xodimlarning xayrixohligiga emas, aniq va barqaror xizmat ko'rsatish tartiblariga tayanishi kerak.

"Muayyan kasbga mos emaslik" yoki past akademik salohiyat haqidagi asossiz tasavvurlar ta'limdagi ijtimoiy masofani kuchaytiradi. O'qituvchilarni muloqot etikasi va moslashuvchan baholash bo'yicha tayyorlash, tengdoshlar mentorligi hamda birgalikdagi ilmiy loyihalarni rivojlantirish bunday stereotiplarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni 38-moddasida barcha darajalardagi ta'lim va umrbod ta'lim olish huquqi nazarda tutilgan. Ushbu kafolat universitetda mas'ul bo'linma, ochiq murojaat tartibi, ehtiyojni individual aniqlash, zarur resurs ajratish va qaror ijrosini nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.²⁶

²⁵ BMT. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya, 13.12.2006, 24-modda, 1- va 5-bandlar.

²⁶ O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni, 15.10.2020, O'RQ-641-son, 38-modda.

Xorijiy tajribada inklyuziv ta'limni ta'minlashning muhim yo'nalishi akademik moslashtirishdir. AQSh Ta'lim departamenti tushuntirishiga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida nogironligi bo'lgan talabalarga imtihon uchun qo'shimcha vaqt, surdotarjimon, ekran o'qish dasturi kabi yordamchi vosita va xizmatlar individual ehtiyojdan kelib chiqib taqdim etilishi mumkin. Bunda ta'lim dasturining asosiy akademik talablari saqlanadi [7].

Buyuk Britaniyada talabalarning o'qish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarini qoplashga qaratilgan Disabled Students' Allowance (DSA) dasturi mavjud. U muvofiq talablarga javob beradigan talabalarga maxsus texnika, nomeditsina yordamchi mutaxassislar va zarur hollarda transport xarajatlari uchun qo'llab-quvvatlash taqdim etadi. Yordam turi shaxsiy ehtiyojga qarab belgilanadi [8].

AQSh va Buyuk Britaniya misollarida umumiy jihat shuki, qo'llab-quvvatlash talabani ehtiyojini aniqlash va uning ta'lim jarayonida mustaqil ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni qo'llashda universitetning moddiy imkoniyati, mavjud huquqiy kafolatlar va talabalarning o'z fikrini hisobga olish zarur.

Sotsial omillarni institutsional jihatdan tahlil qilganda bir-biriga bog'liq uchta pog'onani ajratish mumkin. Birinchi pog'ona – kirish imkoniyati: qabul xabarnomalari, imtihon joyi, ariza topshirish va maslahatlarga yetishish. Ikkinchi pog'ona – mazmunli ishtirok: auditoriya va laboratoriya mashg'ulotlari, raqamli resurslar, amaliyot, ilmiy to'garak hamda baholash jarayonlaridan foydalanish. Uchinchi pog'ona – natija va istiqbol: kursdan kursga o'tish, akademik muvaffaqiyat, diplom olish, keyingi ta'lim va ishga joylashish imkoniyatlari. Mazkur bosqichlardan faqat birinchisi rivojlansa, qabul qilingan talaba keyinchalik ta'lim tizimida yolg'iz qolishi xavfi saqlanadi.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 2025/2026-o'quv yili boshida O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarida 1 million 535 ming nafar talaba o'qigan. Bu jami talabalar soni bo'lib, nogironligi bo'lgan talabalar ulushini ifodalamaydi.

Inklyuziv ta'lim qamrovini baholash uchun mazkur guruhning qabul qilinishi, o'qishni davom ettirishi va bitirishi haqidagi alohida ma'lumotlar zarur.²⁷

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 22-dekabrda axborotiga ko'ra, 2025-yilda I–II guruh nogironligi bo'lgan abituriyentlar uchun 3 907 ta qo'shimcha davlat granti kvotasi ajratilib, 3 258 nafar yosh talabalikka tavsiya etilgan. Bu ko'rsatkichlar qabul mexanizmini tavsiflaydi; ularni mamlakatdagi jami nogironligi bo'lgan talabalar soni yoki ta'lim muhitining sifati bilan aynanlashtirib bo'lmaydi.²⁸

Shu sababli kirish kvotasi bilan bir qatorda, talabalarning kursdan kursga o'tishi, o'quv resurslaridan foydalanishi va qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan qoniqishi anonimlashtirilgan ma'lumotlar hamda ixtiyoriy suhbatlar asosida o'rganilishi lozim. Bunday kuzatuvda shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi saqlanishi shart.

Oilaning iqtisodiy imkoniyatlari, yaqinlarning qo'llab-quvvatlashi, transport, turar joy va zarur qurilmalardan foydalanish talabani uzluksiz ta'lim olishiga bevosita ta'sir qiladi. Qabuldagi moliyaviy imtiyoz kundalik yashash va o'qish xarajatlari bilan bog'liq barcha to'siqlarni bartaraf etmaydi. Shu bois stipendiya, transport va turar joy xizmatlarini akademik qo'llab-quvvatlash bilan uyg'unlashtirish muhim.

Olis hududdan kelgan talabani universitetga yetib kelishi va mos turar joy topishi ham ta'lim imkoniyatining tarkibiy qismidir. Mahalliy hokimiyat, transport tashkilotlari va nodavlat tuzilmalar bilan hamkorlik zarur bo'lishi mumkin; ko'mak shakli esa talabani o'zi bildirgan ehtiyoj va tanloviga asoslanishi lozim.

Zamonaviy universitetning ko'plab funksiyalari elektron muhitga ko'chgan: dars jadvali, HEMIS kabi akademik tizimlar, elektron kutubxona, baholash topshiriqlari va onlayn murojaatlar bir-biriga bog'langan. Shu bois raqamli qulaylik alohida texnik xizmat emas, akademik huquqdan foydalanishning ijtimoiy sharti

²⁷ Milliy statistika qo'mitasi. "Talabalar statistikasi: ta'lim bosqichi va hududlar kesimidagi taqsimot", 07.07.2026.

²⁸ Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. "Oliy va kasbiy ta'lim tizimida inklyuziv muhit masalalari jamoatchilik eshituvda muhokama qilindi", 22.12.2025.

sifatida qaralishi kerak. Ekran o'qish dasturi bilan ishlamaydigan tugma, faqat rasm ko'rinishidagi PDF, subtitrsiz video yoki faqat rang orqali berilgan xabar turli talabalar uchun bir xil emas, turlicha to'siq yaratadi. Materialni tahrirlanuvchi matn shaklida berish, hujjat sarlavhalarini mantiqan tuzish, klaviaturada boshqarish va alternativ formatlarni taklif etish ta'lim sifatini kengroq guruh uchun oshiradi.

Jonli muloqotda ham individual ehtiyoj inobatga olinishi kerak: ayrim talabaga surdotarjima yoki yozma izoh, boshqasiga ko'rgazmali materialning og'zaki tavsifi yoxud qulay auditoriya zarur bo'lishi mumkin. Moslashtirishning aniq shakli talabaning roziligi va bildirgan afzalligiga muvofiq tanlanadi.

UNICEFning 2026-yil iyundagi xabarida ISHONCH–2030 doirasidagi 50 ta namunaviy maktab bo'yicha ota-onalarning 43 foizi va o'qituvchilarning 32 foizi nogironligi bo'lgan bolalar uchun umumiy ta'lim muassasalarini eng maqbul muhit deb bilishi qayd etilgan. Bu maktab bosqichiga oid ko'rsatkichlar oliy ta'lim jamoasining munosabatini yoki butun mamlakat aholisini bevosita ifodalamaydi; ular ijtimoiy qarashlarni alohida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.²⁹

Maktabdan oliy ta'limga o'tishda abituriyent uchun kirish imkoniyatlari va mavjud moslashtirishlar haqida oldindan aniq axborot berilishi lozim. Qabul komissiyasi, maktab va universitetning maslahat xizmatlari hamkorligi talabaga kasbiy yo'lini mustaqil tanlash uchun zarur ma'lumotni yetkazishi mumkin.

Inklyuziyaning institutsional barqarorligi qaror qabul qilish jarayonida talabalar ovozinig qanchalik eshitilishiga bog'liq. Talaba kengashi, universitetning sifat bo'yicha komissiyasi va raqamlashtirish guruhlarida nogironligi bo'lgan talabalarning ixtiyoriy ishtirokini ta'minlash kampusdagi muammolarni tashqi kuzatuvchining taxminiga emas, bevosita tajribaga tayangan holda aniqlash imkonini yaratadi. Shuningdek, murojaatni qabul qilish, javob qaytarish, nizolarni hal etish va qaror ustidan shikoyat qilishning aniq tartibi umumiy xayrixohlikni

²⁹ UNICEF. "Inclusive education through the eyes of children", 02.06.2026; ISHONCH–2030 doirasidagi 50 ta namunaviy maktab.

hisobdor institutsional amaliyotga aylantiradi. Ushbu jarayonda talabaga daxldor qarorlar uning ishtirokisiz qabul qilinmasligi fundamental talabdir.

Inklyuziya natijalarini baholash uchun faqat pandus soni yoki imtiyozli qabul ulushiga qarash yetarli emas. Birinchidan, kirish ko'rsatkichlari – ariza topshirish va imtihon jarayonining qulayligi, foydalanilgan moslashtirish turlari va qabuldan voz kechish sabablari; ikkinchidan, jarayon ko'rsatkichlari – o'quv materiallari formatlari, xizmatga murojaat qilish muddati, baholash moslashtirilishi va auditoriyalarning amaldagi qulayligi; uchinchidan, natija ko'rsatkichlari – fanlarni o'zlashtirish, ta'limni davom ettirish, bitirish va akademik faoliyatda ishtirokni alohida tahlil qilish lozim. Har bir ko'rsatkich talaba qadr-qimmatini himoya qiladigan, shaxsiy ma'lumotni ehtiyotkor qayta ishlashga asoslangan usul bilan yig'ilishi kerak.

Universitet darajasida amaliy mexanizm sifatida yagona murojaat oynasi, o'quv materiallarining minimal qulaylik standarti, auditoriya va turar joyning davriy auditi, professor-o'qituvchilar uchun qisqa amaliy treninglar hamda talabalar ishtirokida yillik baholash joriy etilishi mumkin. Birinchi navbatda talabaga eng katta mustaqillik beradigan, ko'p kishiga xizmat qiladigan yechimlarga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq: masalan, dastlabdan raqamli matnli formatda tayyorlangan material alohida talabani kutmasdan ko'plab foydalanuvchilarga qulay bo'ladi. Individual yordam va tizimli dizayn bir-birini almashtirmaydi; ular o'zaro to'ldiruvchi mexanizmlardir.

Xulosa. Oliy ta'limda inklyuziyani joriy etish ijtimoiy munosabat, huquqiy kafolatlarning amaliy ijrosi, oilaviy-hududiy resurslar, raqamli qulaylik va talabalar ishtirokidagi boshqaruvga bog'liq. Bu omillar uyg'unlashgandagina ta'limga rasmiy kirish imkoniyati mazmunli akademik ishtirok va shaxsiy mustaqillikka aylanadi. Demak, inklyuziya bir martalik qabul chorasi emas, universitetning kundalik faoliyatini takomillashtiruvchi uzluksiz ijtimoiy jarayondir.

Universitetlar talabalarning o'zi bilan maslahatlashib, resurslarni qulay formatda taqdim etishi, xodimlar malakasini oshirishi va qabuldan bitiruvgacha

bo'lgan ta'lim yo'lini kuzatishi kerak. Statistik xulosalarda jami talabalar, grant kvotalari va talabalikka tavsiya etilganlar soni farqlanishi, maktabdagi so'rov natijalari esa oliy ta'limga avtomatik ko'chirilmasligi zarur. Xorijiy tajriba talabani individual qo'llab-quvvatlash bilan universitet muhitini tizimli moslashtirishni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son, 20-modda. [<https://lex.uz/docs/-5013007>]
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya. 2006-yil 13-dekabr, 24-modda. [https://www.ohchr.org/sites/default/files/C_h_IV_15.pdf]
3. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 15-oktabr, O'RQ-641-son, 38-modda. [<https://lex.uz/docs/-5049511>]
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "Talabalar statistikasi: ta'lim bosqichi va hududlar kesimidagi taqsimot". 2026-yil 7-iyul. [<https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/69090-talabalar-statistikasi-talim-bos-ichi-va-ududlar-kesimidagi-ta-simot-2>]
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. "Oliy va kasbiy ta'lim tizimida inklyuziv muhit masalalari jamoatchilik eshituvida muhokama qilindi". 2025-yil 22-dekabr. [<https://gov.uz/oz/edu/news/view/113132>]
6. UNICEF. "Inclusive education through the eyes of children" ["Inklyuziv ta'lim bolalar nigohida"]. 2026-yil 2-iyun. [<https://www.unicef.org/uzbekistan/en/press-releases/inclusive-education-through-eyes-children>]
7. U.S. Department of Education, Office for Civil Rights. "Disability Discrimination: Academic Adjustments for Postsecondary Students". [Academic Adjustments for Postsecondary Students]
8. GOV.UK. "Help if you're a student with a learning difficulty, health problem or disability: Disabled Students' Allowance". [Disabled Students' Allowance]